

O'ZBEKISTON MICE TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Madrimova Aziza Ambiyat qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Turizm va mehmonxona biznesi kafedrası assistenti

Annotatsiya

Maqolada MICE turizm bozorini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi masalalari ko'rib chiqilgan. MICE turizmi rivojlangan davlatlarning ustuvor yo'nalishlari o'rganilgan. MICE turizmini rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, biznes-turizm turini rivojlantirish orqali mamlakatga tadbirkorlarni jalb qilish hamda milliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatish masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, O'zbekistonda MICE turizmini rivojlantirish orqali erishiladigan natijalar, biznes sayyohlar kelishi natijasida mamlakatga valyuta oqimini oshirish va infratuzilmaning rivojlanishi haqidagi fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: MICE turizm, xorij turizmi, turistik xizmatlar, biznes tadbirlar, ishbilarmonlik turizmi, xorij tajribasi.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы зарубежного опыта развития рынка туризма MICE. Изучены приоритетные направления стран с развитой MICE-индустрией. Представлены мнения и соображения о социально-экономическом развитии экономики страны посредством развития MICE-туризма, о положительном влиянии на национальную экономику посредством развития бизнес-туризма и привлечения предпринимателей в страну, о результатах, достигнутых за счет развития MICE-туризма в Узбекистане, об увеличении притока валюты в страну в результате прибытия бизнес-туристов, о развитии инфраструктуры.

Ключевые слова: Туризм MICE, международный туризм, туристические достопримечательности, бизнес-события, международный опыт.

Abstract

The article discusses the issues of foreign experience in the development of the MICE tourism market. The priority directions of countries with developed MICE industries were studied. Opinions and considerations were presented on the socio-economic development of the country's economy through the development of MICE tourism, the positive impact on the national economy through the development of business tourism and attracting entrepreneurs to the country, the results achieved through the development of MICE tourism in Uzbekistan, the increase in the inflow of currency into the country as a result of the arrival of business tourists, and the development of infrastructure.

Keywords: MICE tourism, international tourism, tourist attractions, business events, international experience.

KIRISH

Ishbilarmonlik turizmi odamlar savdo qilish uchun sayohat qilganda paydo bo'lgan. Bu eng qadimgi sayohat turlaridan biridir. Ilgari odamlar tovarlarni almashtirish uchun sayohat qilishgan, endilikda biznes turizmi turli tashkilotlar xodimlarining biznes maqsadlari bilan sayohatlari yoki korporativ tadbirlarni tashkil etish shaklida namoyon bo'lmoqda.

Biznes turizmining ijtimoiy ahamiyati, avvalo, ushbu sohani rivojlantirish va uning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan keng turdagi xizmatlarni taqdim etishda namoyon bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

MICE turizm bozori yuqori darajadagi malaka va bilimlarni talab qiladi, bu esa yoshlarni o'qitish uchun o'quv dasturlarining paydo bo'lishiga yordam beradi. Yangi faoliyat turlarini shakllantirish, fan va texnikaning so'nggi yutuqlari va ishlanmalarini amaliyotga tatbiq etish jarayonini rag'batlantirish biznes turizmining innovatsion ahamiyatini belgilaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

R.V. Vitalyevich MICE sanoatiga quyidagicha ta'rif beradi: "Aksariyat mutaxassislar biznes turizmini 'uchrashuvlar industriyasi' deb ta'riflaydilar. Bu turizm turi, o'z navbatida, bir qator bo'limlarga bo'linib, 'MICE sanoati' tushunchasini shakllantiradi (Meetings – uchrashuvlar, Incentives – rag'batlantiruvchi sayohatlar, Conferences – konferensiyalar, Exhibitions – ko'rgazmalar). Shunday qilib, ishbilarmonlik turizmi nafaqat xususiy ishbilarmonlik tashriflarini, balki bir necha ming kishilik xalqaro konferensiyalar, ko'rgazmalar, yarmarkalarni tashkil etish va qo'llab-quvvatlash ishlarini o'z ichiga oladi." [1]

Margarita Evanovna MICE-turizm tushunchasini quyidagicha yoritgan: "Zamonaviy dunyoda biznes turizmi sohasida yangi yo'nalish paydo bo'ldi – MICE-turizm, uning rivojlanishi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi. Ishbilarmonlik turizmi ko'plab mamlakatlarning rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga ega destinatsiyadir. 'MICE-Tourism' atamasi biznes turizmining segmenti sifatida belgilanadi. MICE-turizm bu barqaror yuqori o'sish va nisbiy qarshilik bilan tavsiflanadi hamda iqtisodiy, siyosiy, tabiiy va boshqa omillarning ta'sirida rivojlanadi." [2]

Kurpiyashkina esa tadqiqotlarida MICE sanoatiga quyidagicha yondashgan: "Hozirgi kunga kelib kongress tadbirlari ayniqsa mashhur. MICE sanoati rivojlanishi orqali butun dunyo mamlakatlarining yalpi ichki mahsulotidagi daromadlari oshmoqda. Har yili biznes maqsadlari bilan 100 milliondan ortiq sayohat amalga oshirilmoqda." [3]

Xalqaro Kongress va Konvensiya Assotsiatsiyasi (ICCA) tomonidan "biznes-turizm – bu yig'ilishlar, kongresslar, ko'rgazmalar, ishbilarmonlik tadbirlari va

millionlab delegatlarga joy va xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar majmui, rag'batlantiruvchi sayohatlar" deb ta'rif berilgan. [4]

METODOLOGIYA

Maqolada ilmiy mushohada, kuzatish, abstrakt-mantiqiy, qiyosiy va tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan. Ushbu maqolada mamlakatimizda MICE turizmini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish yo'llari ko'rib chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

MICE turizm bozori hajmi 2022-yilda 42,8 milliard AQSh dollariga baholangan. Ma'lumki, davlat investitsiyalarining ko'payishi ushbu sanoatni rag'batlantiradi. Hukumatlar infratuzilma obyektlarini rivojlantirish va reklama tadbirlariga strategik sarmoya kiritishga olib keladigan biznes tadbirlarini o'tkazishning iqtisodiy afzalliklarini tan oladilar, biroq ichki turizm bilan cheklanib qoladilar.

Chet elga sayohatlar haqida gapirilganda, shuni ta'kidlash joizki, sayyohlarning 10 foizi G'arbiy Yevropa mamlakatlariga safar uyushtiradi. Bugungi kunda Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarning o'sishi tendensiyasi kuzatilmoqda va bu taxminan 5 foizni tashkil qiladi.

Yevropa Insentiv Turizm Assotsiatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2018-yilda AQSh (taxminan 60 foiz), Buyuk Britaniya (20 foiz) va Germaniya (11 foiz) hali ham tashqi insentiv turizmga ega bo'lgan asosiy mamlakatlar orasida yetakchi o'rinlarni egallab turibdi. Shuningdek, so'nggi yillarda yaponiyalik insentiv sayyohlar sonida sezilarli darajada oshish kuzatildi. [5]¹

1-jadval

MICE turizmining tarkibiy elementlari

Meetings (korporativ uchrashuvlar, muzokaralar)	Muzokaralar va biznes konferensiyalarda bunday uchrashuvlar natijasida hamkorlar va mijozlar bilan yangi aloqalar o'rnatiladi, bitimlar tuziladi, korxonalar kengaytiriladi yoki yangi hamkorliklar yaratiladi.
Incentives (xodimlar uchun motivatsion va rag'batlantiruvchi sayohatlar)	Ichki korporativ tadbirlar xodimlarni samarali rag'batlantiradi va ularning dam olish va o'zini-o'zi rivojlantirish ehtiyojlarini qondiradi. Hissiy ishtirok kompaniya muvaffaqiyatida ishtirok etish hissini kuchaytiradi. Treninglar va intensiv kurslar esa malaka oshirish imkoniyatini beradi.
Confrences (biznes konferensiyalari, kongresslar, forumlar, seminarlar)	Ishbilarmonlik tadbirlari turli biznes vakillari o'rtasida aloqa o'rnatish uchun cheksiz imkoniyatlar beradi va tadbirlarda shaxsiy uchrashuvlar biznes maqsadlariga erishishda katta rol o'ynaydi.
Exhibition (ko'rgazmalar, PR tadbirlar)	Ko'rgazmalar va taqdimotlar kompaniyani targ'ib qiladi va bozorga chiqarayotgan mahsulotiga e'tiborni qaratadi, shuningdek, savdoni rag'batlantiradi.

¹ Mixaylova, A. E. AQShda biznes turizmini rivojlantirish xususiyatlari / A. E. Mixaylova. — Matn: to'g'ridan-to'g'ri // yosh olim. — 2019. — № 17 (255). 160-162-betlar. — URL: <https://moluch.ru/archive/255/58453/> (kirish sanasi: 28.11.2024)

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan MICE turizmini rivojlantirish bo'yicha aniq va maqsadli tadbirlar rejasi tasdiqlanib, zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekistonda turizmning yangi turlarini rivojlantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida so'nggi yillarda bir nechta yirik tadbirlar o'tkazildi. Ular orasida, ayniqsa, Xorazm viloyatidagi an'anaviy "Bahodirlar o'yini" sport turniri, Surxondaryodagi "Baxshichilik san'ati" festivali va Qoraqalpog'istondagi "Mo'ynoq-2019" avtorallilari kutilgan natijalarni taqdim etdi.

Shuningdek, Toshkent xalqaro turizm yarmarkasida 2023-yilda ishtirok etgan korxonalar soni 300 tani, yarmarka doirasida imzolangan shartnomalar soni 800 tani, tashrif buyuruvchilar esa 8 500 nafarni tashkil etdi. Ushbu tadbirni ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha 60 dan ortiq telekanal, radio va boshqa axborot vositalari jalb qilindi.

Ko'plab xalqaro nashrlarning qayd etishicha, mamlakatimiz 2020-yilda eng jozibali sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylandi. Britaniyaning *The Telegraph* nashri tashrif buyurish tavsiya etiladigan davlatlar ro'yxatini e'lon qildi va ular orasida mamlakatimiz ham keltirildi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonga 6,748 million kishi tashrif buyurgan va bu ko'rsatkich 2018-yildagi statistikadan 125 foizga yuqori (5,346 million kishi) hisoblanadi.

O'zbekistonda turizm sohasini tubdan isloh qilish jarayonlari tez sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda. Turizm sohasidagi o'zgarishlar milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, u hududlarning jadal rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, 2000-yildan beri xalqaro turizmning yillik o'sish sur'ati 5,8 foizlik ko'rsatkich bilan jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atidan (5,4%) oldinda bo'lib keldi va 2018-yildan beri turizm sohasi jahon yalpi ichki mahsulotiga 3,9 foiz miqdorida (3,35 trillion AQSh dollari) bevosita ta'sir ko'rsatdi.

MICE turizm uchrashuvlar, rag'batlantirishlar, konferensiyalar yoki kongresslar, anjumanlar va ko'rgazmalar degan ma'noni anglatadi. Sayohatning bu shakli ish safari muddati bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlash lozim.

Tadbirlar agentliklari, kongress mehmonxonalari, kongress-ko'rgazma markazlari, kongress-ko'rgazma birlashmalari, biznes markazlari, ko'rgazma birlashmalari, davlat va tijorat tashkilotlarining ko'rgazma bo'limlari, muzeylar, galereyalar, ko'rgazma zallari, tadbirlarni tashkil etuvchi firmalar kabi korxonalarni o'z ichiga olgan uchrashuv sanoatining (MICE sanoati) faol rivojlanishi tufayli ishbilarmonlik turizm firmalari, intensiv turizm firmalari, seminarlar, ilmiy va korporativ konferensiyalar, sayyohlik yarmarkalari va ko'rgazmalar soni ham ko'paymoqda. Shu bilan birga, ularning ishtirokchilari va mehmonlari soni ortib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, MICE turizmini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish mamlakatimizda aholining ijtimoiy hayotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. MICE tadbirlarining o'tkazilishi mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilashga,

mahalliy infratuzilmalarning rivojlanishiga va asosiysi, aholining bandlik bilan ta'minlanishiga xizmat qiladi. MICE turizmining rivojlanishi hududdagi turizm infrastrukturasini rivojlantirishga alohida ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda MICE turizm bozori hududiy infratuzilmalarni rivojlantirish, texnologik yutuqlar va boshqa sohalarga investitsiyalarning ko'payishi hisobiga iqtisodiyotning sezilarli o'sishiga sababchi bo'layotganligi hech kimga sir emas.

Biznes turizmining ijtimoiy ahamiyati, avvalo, ushbu sohani rivojlantirish va uning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan keng turdagi xizmatlarni taqdim etishda namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

MICE turizm bozori yuqori darajadagi malaka va bilimlarni talab qiladi. Bu esa yoshlarni o'qitish uchun o'quv dasturlarining paydo bo'lishiga yordam beradi. Yangi faoliyat turlarini shakllantirish, fan va texnikaning so'nggi yutuqlari va ishlanmalarini amaliyotga tatbiq etish jarayonini rag'batlantirish biznes turizmining innovatsion ahamiyatini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Развитие и продвижения индустрии делового туризма на туристском рынке: на примере Санкт-Петербурга тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.05, г. 2009, РИТСС Виталий Виталевич.

2. "Развитие МИСЭ-туризма в Республике Алтай", Санкт-Петербург, 2019 год, Гутникова Маргарита Евгеньевна.

3. Мақола, "Экономика и социум", №6 (85) қисм 1, 2021 йил, "История формирования МИСЭ-туризма", Кубан давлат университети, Россия, Краснодар, Куприяшкина А. Э.

4. Igor Trisic, Venera Arsenov-Bojovic. "The Role of MICE Industry in Tourism Development."

5. Mixaylova A. E., "AQShda biznes turizmini rivojlantirish xususiyatlari." Matn: Yosh olim, 2019 yil, №17 (255), 160–162-betlar. URL: <https://moluch.ru/archive/255/58453/> (kirish sanasi: 28.11.2024).